

The logo consists of the letters "IMRS" in a bold, white, sans-serif font, centered within a solid red rectangular background.

Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

2024
2025
2026

APREL
MAY
IYUN

Faoliyatning
asosiy
ko'rsatkichlari

Mundarija

2017-2024 yillarda sanoat rivojlanishining asosiy tendensiyalari	2
Hududlar ishlab chiqarish sanoatining raqobat ustunligi reytingi: 2024-yil natijalari	4
Toshkent shahrida ko'p qavatli uy-joylarga investitsiyalarning daromadliligi	6



2017-2024 yillarda sanoatdagi o'sish tendensiyalari ishlab chiqarish tuzilmalarini keng ko'lamda isloh qilish sharoitida shakllandi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish har yili o'rtacha 6,2 foizga, umuman, tahlil qilingan davrda esa 1,5 barobardan ko'proqqa o'sdi. Bu sanoatning iqtisodiy o'sish «drayveri» sifatidagi o'rnini mustahkamlash imkonini berdi. Sanoatning YaIM tarkibidagi ulushi 2017-yildagi 22,2 foizdan 2024-yilda 26,4 foizgacha oshdi.

Ushbu rivojlanish davrining o'ziga xos xususiyati ishlab chiqarish tarmoqlarining faol o'sishi hisobiga sanoatning xomashyo tuzilmasidan yanada diversifikatsiyalangan tuzilmasiga o'tish bo'ldi. Ishlab chiqarish sanoati 2017-yil darajasiga nisbatan 1,6 barobar o'sdi va sanoat umumiy hajmining 85 foizidan ortig'ini tashkil etdi. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yaxshi o'sish ko'rsatkichlaridan biridir.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini ustuvor rivojlantirishga qaratilgan siyosat bozorda tarmoq «yetakchilari»ning shakllanishida yordam berdi. Tahlil natijalariga ko'ra, avtotransport vositalari va elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish 2,9 barobar, to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklarni ishlab chiqarish 2 barobar, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,5 barobar oshdi. Xomashyoni chuqur qayta ishlashga o'tish hisobiga metallurgiya tarmog'ida ishlab chiqarish hajmi 1,5 barobar, qurilish materiallari sanoatida 1,7 barobar oshdi.

MHTI mutaxassislari tomonidan Sanoat mahsulotlari Eksport diversifikatsiyasi indeksi (DI) hisoblab chiqildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi tor ixtisoslashuvdan yanada diversifikatsiyalangan mahsulotlar savati eksportiga o'tishga katta hissa qo'shdi.

Diversifikatsiya indeksi (DI) Xerfindal-Xirshman indeksining (HHI) teskari qiymatini ifodalaydi: $DI = 10000 - HHI$. DI ko'rsatkichi quyidagicha talqin qilinadi: $8000 \leq DI \leq 10000$ - optimal diversifikatsiya; $5000 \leq DI < 8000$ - diversifikatsiyaning o'rtacha darajasi; $2000 \leq DI < 5000$ - diversifikatsiyaning past darajasi; $0 \leq DI < 2000$ - diversifikatsiyaning mutlaqo past darajasi.

Asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarida Eksport diversifikatsiyasi indeksi (DI) so'nggi davrda optimal qiymatlargacha, shu jumladan to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklar eksportida 8 149,5 (+571,5), kimyo mahsulotlari eksportida 8 245,2 (+1 044,8) gacha oshdi. Metallurgiyada indeksning 8 657,6 (+443,3) gacha o'sishi misni chuqur qayta ishlash mahsulotlari, shu jumladan mis simlar va quvurlar eksportining o'sishi hisobiga ta'minlandi.


O'sish ayniqsa, avtomobilsozlik, elektrotexnika kabi texnologik sohalarda sezilarli bo'lmoqda. Avtomobilsozlik sanoatida avtotransport vositalari modellar qatorining kengayishi tufayli Eksport diversifikatsiyasi indeksi yuqori bo'lgan (6 335,6 (+4 420) toifaga jadal o'tish kuzatildi. Biroq indeksning eng yuqori ko'rsatkichi texnologik va murakkab buyumlar assortimentining kengayishi hisobiga elektrotexnika sanoati (8 922,4 (+589,8)) da qayd etildi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishning nisbatan diversifikatsiyalangan tarkibiga erishish O'zbekistonga Eksportning iqtisodiy murakkablik indeksi bo'yicha jahon reytingida o'z o'rnini yaxshilab, dunyodagi 145 ta mamlakat orasida 80-o'ringa ko'tarilish imkonini berdi.


Sanoat siyosatining o'rta va uzoq muddatli maqsadlari barqaror ishlab chiqarish tuzilmalarini rivojlantirish, yanada texnologik va murakkab mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish asosida muvozanatlashgan eksport savatini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu maqsadlar «O'zbekiston - 2030» strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlariga, jumladan, eksport hajmini 2 barobarga oshirish, texnologik sanoat mahsulotlari ulushini 32 foizga yetkazish va milliy sanoatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish vazifalariga mos keladi.

2017-2024 yillarda O'zbekiston sanoatida erishilgan asosiy natijalar

2017-2024 yillarda sanoatning o'sish sur'ati (2017-yil darajasiga nisbatan foiz hisobida)



Sanoat o'sishiga eng yuqori hissa qo'shgan mahsulotlar beshtaligi



Sanoat mahsulotlari Eksport diversifikatsiyasi indeksi



Diversifikatsiya indeksi (10000-HHI) Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI) asosida hisoblanadi va tuzilmadagi (masalan, mahsulot, tarmoq yoki geografik) xilma-xillik darajasini aks ettiradi. Indeks qiymati qancha yuqori bo'lsa, diversifikatsiya darajasi shuncha yuqori hisoblanadi

2024-yilda O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari ishlab chiqarish sanoati hajmi va diversifikatsiya indeksi



Manba: barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari va Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy ma'lumotlar bazalari asosida qilingan



Ushbu reyting hududlarning ishlab chiqarish sanoati salohiyati va raqobatbardoshligini baholashga qaratilgan. 2024-yil O'zbekistonda qayta ishlash sanoati mahsulotlarining hajmi 753,6 trln. so'mni tashkil etdi. Bu 2023- yildagiga nisbatan 7,7 foiz yuqori. Sohaning YAIMdagi ulushi 2023-yildagi 19,4 foizdan 2024-yilda 20,2 foizga, investitsiyalar tarkibidagi ulushi esa 28,6 foizdan 29,3 foizga ortishi iqtisodiy islohotlar va transformatsiya jarayoni natijasidir.

Reyting natijalari:

Reyting ishlab chiqarish sanoatining diversifikatsiya va lokalizatsiya ko'rsatkichlari asosida baholanib, bunda Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI) va Aniqlangan qiyosiy ustunlik (Revealed Comparative Advantage (RCA)) indeksidan foydalanildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, hududlar 3 guruhga bo'lindi:

I guruhdan qayta ishlash sanoati yuqori darajada diversifikatsiyalashgan va raqobat ustunligiga ega bo'lgan Toshkent sh., Farg'ona va Namangan viloyatlari joy oldi. Ushbu hududlarning o'ziga xos xususiyati ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashgani (HHI = 818 - 1447) hamda tarmoqlarning aksariyat qismi (o'rtacha 30 foizdan yuqori) raqobat ustunligi bo'yicha yetakchi o'ringa ega ekanligidir.

II guruhga ishlab chiqarish sanoati o'rta darajada diversifikatsiyalashgan va raqobat ustunligi o'rtacha bo'lgan Samarqand, Sirdaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari (jami hududlarning 42 foizi) kirgan. Bunda ishlab chiqarish sanoatining diversifikatsiya koeffitsiyenti o'rtacha ko'rsatkichga (HHI = 1525- 2431), raqobat ustunligiga ega yetakchi tarmoqlarning ulushi esa o'rtacha 22 foizga teng bo'lgan.

III guruhga raqobat ustunligi darajasi nisbatan past bo'lgan hududlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Andijon, Navoiy viloyatlari kirdi. Ularning ishlab chiqarish sanoati diversifikatsiyalashuvi nisbatan past (HHI = 2514 - 6310), ya'ni 1-2 ta sohaga yuqori darajada bog'liq (ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 60 foizdan yuqori). Shuningdek, raqobat ustunligiga ega tarmoqlar cheklangan.

2024-yil yakunlariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi (HHI 2023-yildagi 3145 dan 2024-yilda 2514 ga yaxshilangan), Andijon (4761 dan 3820 ga), Buxoro (3293 dan 2590 ga) va Surxondaryo (2886 dan 2285 ga) viloyatlarida ishlab chiqarish sanoatida diversifikatsiya darajasi sezilarli o'zgargan. Namangan viloyati (1604 dan 1447 ga) sanoatidagi ijobiy o'zgarishlar tufayli o'rta darajali guruhdan yuqori darajali guruhga o'tdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda sanoatni rivojlantirishda joylarda mavjud salohiyat va zaxiralardan oqilona foydalanish, yangi tayanch nuqtalarini yaratish raqobat ustunligini barqarorlashtirish va hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishda yordam beradi. Shu bilan birga, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, hududlar qayta ishlash sanoatining diversifikatsiya va raqobat ustunligi reytingi mamlakatimizda hududlarining sanoat salohiyati va raqobatbardoshligini baholash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu reyting natijalari hududlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va investitsiyalarni jalb qilishda foydali bo'lishi mumkin.

HUDUDLAR ISHLAB CHIQRISH SANOATINING RAQOBAT USTUNLIGI REYTINGI

	HHI	ΔHHI (2023-2024 yillar farqi)	Oqsoq oyoq mahsulotlari	Ichimliklar	To'g'riqachlik mahsulotlari	Kiyim ishlab chiqarish	Tex. mahsulotlar	Yop'och mahsulotlar	Qog'oz mahsulotlari	Yozilgan materiallar nashr qilish va aks etirish	Koko va neft mahsulotlari	Kimyo mahsulotlari	Farmatsevtika mahsulotlari	Rezina va plastmassa mahsulotlari	Boshqa nonmetallik mineral mahsulotlar	Metallurgiya sanoati	Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar	Elektr uskunalar	Boshqa to'laqona kiritiladigan mahsulotlar va uskunalar	Aviotransport vositalari	Mediya ishlab chiqarish	Boshqa tayyor buyimlar	Metall va uskunalar ta'mirlash va o'rnatish	
Yuqori darajadagi raqobat ustunligiga ega bo'lgan hududlar (0 ≤ HHI ≤ 1500)																								
Toshkent shahri	818	39 ↓	4	1	13	10	8	3	1	1	6	2	1	4	3	2	1	1	1	5	3	1	1	
Farg'ona viloyati	1318	181 ↓	10	11	2	3	1	1	5	7	3	4	7	4	1	9	6	4	7	6	4	3	12	
Namangan viloyati	1447	157 ↓	9	3	4	2	3	9	6	6	10	7	3	6	10	5	5	7	2	8	11	2	10	
O'rta darajadagi raqobat ustunligiga ega bo'lgan hududlar (1500 < HHI ≤ 2500)																								
Samarqand viloyati	1525	31 ↓	1	8	6	9	5	8	3	4	7	10	6	5	8	4	7	9	5	10	4	10	9	
Sirdaryo viloyati	1620	271 ↓	2	9	11	8	1	2	9	14	13	12	1	2	5	6	4	12	14	4	7	13	2	
Qashqadaryo viloyati	1909	190 ↓	3	10	3	5	6	14	10	9	2	2	10	13	6	14	14	3	11	13	12	6	13	11
Toshkent viloyati	2051	362 ↓	7	4	12	4	8	6	2	2	4	5	4	3	7	2	3	2	3	2	8	9	8	4
Surxondaryo viloyati	2285	601 ↓	11	6	1	7	11	4	14	3	5	14	5	12	2	7	1	11	13	11	10	1	11	3
Xorazm viloyati	2431	227 ↓	8	2	8	14	10	7	4	10	9	13	11	11	13	11	8	9	5	3	11	9	13	
Quyi darajadagi raqobat ustunligiga ega bo'lgan hududlar (2500 < HHI ≤ 10000)																								
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2514	631 ↓	6	5	7	13	14	5	13	13	8	1	9	8	11	8	12	14	12	14	13	5	14	
Buxoro viloyati	2590	703 ↓	5	7	5	6	9	11	8	5	1	8	12	10	9	10	11	10	10	9	14	8	12	5
Jizzax viloyati	2912	-202 ↑	12	13	10	12	13	10	7	11	13	11	14	7	3	12	13	6	4	12	2	7	6	7
Andijon viloyati	3820	940 ↓	13	12	9	1	4	13	11	12	11	9	8	9	14	13	9	13	6	3	1	12	4	8
Navoiy viloyati	6310	-464 ↑	14	14	14	11	12	12	12	8	12	3	13	14	12	1	10	5	8	6	9	14	14	6

Raqobat ustunlik bo'yicha sanoat tarmoqlarining o'rnini

Yuqori o'rin

Quyi o'rin

Izoh: HHI - ishlab chiqarish sanoatining diversifikatsiya darajasi

Raqobat ustunlik bo'yicha sanoat tarmoqlarining o'rti:

Yuqori o'rin

Izoh: HHI - ishlab chiqarish sanoatining diversifikatsiya darajasi

Quyi o'rin



Yer resurslarining cheklanganligi va aholi sonining oshib borishi sharoitida ko'chmas mulkga investitsiya kiritish mulkka egalik qilish bilan birga, barqaror daromad olish imkonini beradi. Bunda, ko'chmas mulkni ijaraga berish hamda mulk qiymatining ma'lum vaqtdan keyin oshishi (kapital o'sish) hisobiga daromad olish mumkin.

2025-yil aprelida Toshkent shahrida uy-joyga investitsiyalarning daromadliligi 6,2%gacha tushdi (2024-yil aprelda - 27,8%). Bunda, mazkur davrda ijaradan keladigan o'rtacha daromad 10,9%dan 8,5%gacha kamaygan bo'lsa, uy-joylarning o'rtacha narxi 2,4% arzonladi. Lekin, uy-joyga investitsiyalar daromadliligi ko'chmas mulkning joylashgan hududi va xonalar soniga qarab bir-biridan sezilarli farqlanadi:

- 1 xonali:** Shayxontohur – 25,1 % (2024-yil aprel – 41,4 %), Mirobod – 0,4 % (24,7 %);
- 2 xonali:** Yakkasaroy – 16,2 % (12,1 %), Uchtepa – -2,0 % (27,1 %);
- 3 xonali:** Yakkasaroy – 16,8 % (27,0 %), Uchtepa – 1,6 % (23,6 %);
- 4 xonali:** Yakkasaroy – 15,6 % (25,2 %), Olmazor – -2,5 % (21,3 %).

Uy-joylar narxi o'zgarishidan olinadigan daromad.


2024-yilning aprel oyida Toshkent shahrida uy-joy xarid qilib, joriy yil aprel oyida ushbu uyni sotishga to'g'ri kelgan investorlar bir yil ichida uy-joylar bozor qiymatining pasayishi sababli uyni xarid narxidan o'rtacha 2,4% kamiga realizatsiya qilishga majbur bo'lishdi. Xususan, ushbu ko'rsatkich Uchtepa tumanida 7,4%ni, Yunusobod tumanida 4,4%ni, Olmazor tumanida 4,2%ni tashkil qildi. Lekin, Toshkent shahrida nisbatan qimmat uy-joylar joylashgan tumanlardan Shayxontohur va Yakkasaroyda uy-joy narxi o'zgarishidan ko'rilgan foyda o'rtacha 6% ni tashkil etdi.

Uy-joylarni ijaraga berishdan olinadigan daromad. Joriy yilning aprel oyida Toshkent shahrida uy-joylar ijarasidan olinadigan o'rtacha daromad pasayishda davom etdi. 2024-yilning aprel oyida o'rtacha daromadlilik 10,9%ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning aprel oyiga kelib ushbu ko'rsatkich 8,1%gacha pasaydi. Mazkur davrda, ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori o'rtacha daromadlilik Mirobodda 9,2% (2024-yil aprel oyida – 11,2%) va Shayxontohurda 8,9% (12,6 %) qayd etildi.

Daromadlilik darajasi bo'yicha investitsion jozibadorligi yuqoriroq bo'lgan 1 va 2 xonali xonadonlar uchun daromadlilik darajasi mos ravishda 8,5% va 6,3%gacha tushdi. Joriy yil yanvar oyida ushbu ko'rsatkichlar 14,3% va 7,5%ni tashkil etib, 2024-yilning aprel oyiga (mos ravishda 30,2% va 25,5%) nisbatan sezilarli darajada kamaygan edi. Shuningdek, joriy yil aprel oyida 3 va 4 xonali xonadonlar uchun daromadlilik ko'rsatkichi 6,7% va 3,3%gacha kamaydi (2024-yil aprelda – 24,9% va 30,6%).

Bank depozitlari daromadlilik darajasi. 2024-yil apreldan 2025-yilning aprel oyigacha bo'lgan davrda jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 5,1% atrofida tebranib turgan bo'lsa, milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha stavka 22 %ni tashkil etgan. Ushbu raqamlar, bir tomondan, uy-joyning investitsiyaviy daromadliligi jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi muddatli depozitlaridan olinadigan o'rtacha daromadlilikka yaqinlashayotganidan dalolat bersa, boshqa tomondan, milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha foiz stavkalari jozibadorligi oshib borayotganini ko'rsatadi. ■

Uy-joy narxi o'zgarishi hamda ijaradan olinadigan o'rtacha daromadlilik



Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari

